

“Kelajak soati” darsining Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun mashg’ulot ssenariysi

Mavzu: “Biz zo‘ravonlikka qarshimiz”.

Ma’ruzachi: Tojiddin Yuldoshev

Dars sanasi: 2025-yil 24-noyabr

Annotatsiya

Ushbu mashg’ulot zo‘ravonlik tushunchasi, uning turlari va oqibatlarini anglash hamda ularning oldini olish yo‘llarini ko‘rsatishga qaratilgan. Dars interaktiv usullarda – videorolik, guruhli muhokama, savol-javob tarzida olib boriladi.

Dars maqsadlari

Umumiy maqsad:

Talabalarni zo‘ravonlik tushunchasi, shakllari va uning oldini olish usullari bilan tanishtirish, shuningdek, ongli fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish, ularni bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, madaniyatli muomala va tinchlikparvarlik kabi insoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash.

1. Kirish. Motivation qism (5 daqiqa) O‘qituvchi:

Assalomu alaykum, hurmatli talabalar!

Bugungi mashg’ulotimiz juda muhim va hayotiy mavzuga – zo‘ravonlik masalasiga bag‘ishlanadi.

BMT Bosh Assambleyasining 1999-yil 17-dekabrdagi rezolyutsiyasiga ko‘ra 25-noyabr Xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish kuni deb e’lon qilingan.

Shu munosabat bilan har yili dunyo miqyosida 25-noyabrdan 10-dekabrgacha “Zo‘ravonlikka qarshi 16 kun” faol harakatlar doirasida turli tadbirlar o‘tkaziladi.

Ehtimol, sizlardan ko‘pchilik “gender” degan so‘zni eshitgan bo‘lsangiz kerak. “Gender” atamasi ingliz tilidan olingan bo‘lib, to‘g‘ridan to‘g‘ri jins deb tarjima qilinadi. Lekin u faqat biologik xususiyatlarni emas, balki jamiyatda ayollar va erkaklarga nisbatan shakllangan ijtimoiy kutuvlar, rollar va majburiyatlarni ifodalaydi. Shu ma’noda gender – insonning tabiiy xususiyatlaridan ko‘ra ko‘proq madaniy an’analar va ijtimoiy qoidalar bilan bog‘liq tushuncha hisoblanadi. Gender – bu faqat ayol va erkak bo‘lish emas, balki jamiyatda ularning roli, o‘rni, huquq va imkoniyatlari haqidagi umumiy tushunchadir.

Lekin afsuski, bu rollarga bo‘lgan noto‘g‘ri qarashlar, stereotiplar ba’zan zo‘ravonlikka, adolatsizlikka olib keladi. Jamiyatda “Ayol jim turishi kerak”, “Erkak

yig‘lamaydi”, “Qizlar turmushga tayyor bo‘lishishi lozim” kabi qarashlar hali ham uchrab turibdi.

Gender zo‘ravonlik – bu faqat shikast yetkazish emas, balki inson qadrini, huquqini, erkinligini tahqirlashdir. Bu faqat ayollarga emas, ba’zi hollarda erkaklarga nisbatan ham sodir bo‘ladi.

Hurmatli talabalar! Siz bunday holatlarni kuzatganmisiz?

Talabalarning javoblari eshitiladi.

Oilaviy zo‘ravonlik (abyuz) – bu hozirgi yoki sobiq turmush o‘rtoqlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan jismoniy, psixologik, jinsiy yoki iqtisodiy xarakterdagi harakatlar, shuningdek, qarindosh bo‘lgan, ularning huquqlari, erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini buzadigan va ularga jismoniy va (yoki) ruhiy azob-uqubatlarni keltirib chiqaradigan odamlar o‘rtasida sodir bo‘lishi mumkin.

Agressor, tajovuzkor – bu boshqa insonga tajovuz ko‘rsatadigan odam.

Xatarli, buzg‘unchi tajovuz – bu ongli xulq-atvor modeli bo‘lib, bunga ong ostidagi “men buni qilishga haqqim bor” degan tushuncha undaydi.

Agressorni nima undaydi?

1. Insonning ustidan hukmronlik o‘rnatish, uni boshqarish istagi.
2. Boshqalarning fikri. Tajovuzkor boshqalarning nazarida o‘zini kuchi, xotinidan past bo‘lmagan qilib ko‘rsatishni istaydi. Aks holda o‘zining jamoadagi obro‘si va mavqeiga putur yetadi deb hisoblaydi.
3. Qo‘rquv. Masalan, boshqalar uni “ko‘ylak dazmollashni bilmaydigan yomon xotin tanlagan” deb o‘ylashidan qo‘rqadi. Yoki xotini uni aldashedan qo‘rqadi. Odatda, bu qo‘rquvlar o‘ta mantiqsiz bo‘lib, real asosga ega bo‘lmaydi.

Zo‘ravonlik turlari

1. **Jismoniy** – jismoniy salomatlikka zarar etkazishga qaratilgan harakatlar. Tan jarohati yetkazish, kaltaklash, urish.
2. **Psixologik** – psixologik salomatlikka zarar etkazish. Xo‘rlash, tahdidlar, aldash, shantaj, nazorat.
3. **Jinsiy** – aldash, shantaj yoki kuch bilan jinsiy harakatga majburlash.
4. **Iqtisodiy** – ishlash, o‘qish, o‘zingiz uchun zarur narsalarni sotib olish, xarajatlar va daromadlarni nazorat qilishni taqiqlash shaklida namoyon bo‘ladi.
5. **Kiberbulling (kiberhujum)** – Internet texnologiyalaridan foydalangan holda ta‘qib qilishning bir shakli. Uning namoyon bo‘lish shakllari har xil – haqorat, shantaj, tahdid, tuhmat, ta‘qib va hokazo.

Bizning jamiyatimizda zo‘ravonlik va shafqatsizlikka murosasizlik so‘nggi yillarda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: **“Madaniyatimizga xos bo‘lmagan bunday illatlarga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lishimiz va ayovsiz kurashishimiz shart!”**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida “Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas” deb belgilab qo‘yilgan. Demak, hech kim boshqani haqorat qilishga, kamsitishga yoki zo‘ravonlik qilishga haqli emas.

Mamlakatimizda oilaviy zo‘ravonlikka chek qo‘yish hamda jamiyatda ayollar va erkaklar teng huquqliligini ta’minlash masalasida so‘nggi yillarda jiddiy qadamlar tashlandi, katta ijobiy o‘zgarishlar bo‘ldi, bu borada qator Qonunchilik hujjatlari va huquqiy mexanizmlar joriy etildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi O‘RQ-562-son “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni va shu sanadagi O‘RQ-561-son “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2024-yil 14-noyabrdagi “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-996-son Qonuni shular jumlasidandir.

Vizual kontent Farangizning qismati

<https://youtu.be/bwLi76FzgnQ>

Vizual kontent

Zo‘ravonlik mavzusiga oid muhim savol-javob – Kamola Alieva
https://youtu.be/0yiXkmQ_BII

Sabablar quyidagilardan iborat:

1) Uyat hissi. Ko‘pincha ayollar eridan ko‘rgan zo‘ravonlikni boshqalarga aytishdan uyaladi. Chunki bu ideal oila degan illyuziyani yo‘qqa chiqaradi, ayolni atrofdagilarga noqis, kamchiligi bordek ko‘rsatadi. Shuning uchun ko‘pincha ular jim turishni afzal ko‘radilar.

2) Qo‘llab-quvvatlanmaslik. Ota-onasi yoki tanishlar tomonidan yordam olish o‘rniga, aksincha, jabrlanuvchining o‘ziga ayblovlari qo‘yish xavfi borligi bois zo‘ravonlik qurbonlari zolimga bo‘ysunishga majbur bo‘ladi.

3) Jamoatchilik bosimi. Ba’zan qanday holat bo‘lishidan qat’i nazar, oilani saqlab qolish kerak, degan fikr ustun turadi.

4) **Qo‘rquv.** Jabrlanuvchi zolimning tahdidlaridan, ayblovlardan qo‘rqadi, shuningdek, uning obro‘sigga putur yetkazish qo‘rquvi ham mavjud.

5) **O‘ziga shubha.** Yillar davomida tahqir va nazorat ostida yashagan ayol o‘ziga nisbatan ishonchini yo‘qotadi.


6) **Odatlanish.** Doimiy stressda yashab, “zo‘ravon o‘zgaradi” degan xayolga ko‘nikib qoladi. Ammo zolim o‘zgarmaydi, u qurbonining qo‘rquvi va emotsiyalaridan kuch oladi.

7) **“Stokgolm sindromi”.** Ayrim hollarda jabrlanuvchi zo‘ravonni hurmat qiladi, uni sevishda davom etadi, hatto uning qilgan zo‘ravonligini oqlab qo‘yadi.

Zo‘ravonlikka duch kelganda, nima qilish kerak?

Siz o‘zingiz zo‘ravonlikka duch kelsangiz yoki yon-atrofingizda zo‘ravonlikning guvohi bo‘lsangiz, mahalla fuqarolar yig‘inidagi ijtimoiy xodimlar va tumandagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga murojaat qilishingiz mumkin.

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi – bu O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimida faoliyat yurituvchi tashkilot bo‘lib, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar va oilalarga mahalla, tuman va hudud darajasida yordam ko‘rsatishni maqsad qilgan.





Denov tadbirkorlik va pedagogika institute
 rektorining 2025-yil __ __ dagi
 __-sonli buyrug 'iga 4-ilova

**Sh.Rashidov binosida “Ma’rifat darslari”da ishtirok etuvchi talabalar
 guruhlari va oqimlarining taqsimlanishi**

	Ta’lim yo‘nalishi	Ta’lim shakli	Kursi	Guruh raqami	Jami talabalar soni	O‘qitilayot-gan smenasi	“Ma’rifat darslari” o‘tkaziladigan vaqti va joyi	Talabalar soni
	Matematika	Kunduzgi	1	1-2-M-3M-tojik-25	64	1	Seshanba 1-hafta Faollar zalida soat 13-00 T.Yuldoshev	27 1
	Kimyo	Kunduzgi	3	10-11K-23	51	1		
	Kimyoviy texnologiyalar	Kunduzgi	3	12KT-23	32	1		
	QXM saqlash va qayta ishlash texnologiyalari	Kunduzgi	3	14-QX-23	18	1		
	Matematika	Kunduzgi	3	1-2-M-23	54	1		
	Fizika	Kunduzgi	3	5-6-F-23	52	1		
	Biologiya	Kunduzgi	2	7-8-9B-24	54	2	Seshanba 1-hafta Faollar zalida soat 12-00 T.Yuldoshev	29 5
	Kimyo	Kunduzgi	4	11-12-K-22	54	2		
	Matematika	Kunduzgi	4	3-4-M-22	49	2		
	Qurilish muhandisligi	Kunduzgi	4	6QM-22	16	2		
	Biologiya	Kunduzgi	4	9-10-B-11B-TJ-22	48	2		
	Fizika	Kunduzgi	4	7-8F-22	40	2		

